

DUAL TA'LIMNI JORIY ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

Sodiqova Gulnora Ergashaliyevna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman

1-son kasb hunar maktabi direktori

Annotatsiya: Ushbu tizimda asoslangan tahlil maqola muammolar va tahliliy echimlarini qiladi. Dual tizim — bu nazariy ta'lim va amaliy mashg'ulotlarni birlashtirishga ta'lim shakli bo'lib, undan o'quvchilarni kasbiy hayotga tayyorlashda foydalaniladi. Ammo tizimda o'quv dasturlarining uyg'unlashmasligi, amaliyot bilan nazariya o'rta bo'shliq, malakali o'qituvchi va ustozlarning yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Maqolada mazkur hamkorlikni yo'qotish uchun ta'lim va ishlab chiqarish sohalari o'zining kuchli hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish hamda o'qituvchilarni qayta ishlab chiqarish bo'yicha takliflar bayon etilgan. Dual tizimning to'g'ri tashkil etilishi talabalar uchun foydali, balki iqtisodiyotning rivojlanishiga ham hissa qo'shishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, talabalar malakasini, ishchi kuchi bozoriga moslashuv, ish beruvchilar bilan hamkorlik, kadrlar tayyorlash strategiyasi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2023-yil 7-dekabrda 647-son qarori bilan professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni yil davomida tashkilotlarning buyurtmalari asosida dual ta'lim shaklida o'qitishni tashkil etish imkoniyati yaratildi.

Mazkur qarorning qabul qilinganligiga ikki oy bo'lishiga qaramay bugungi kunda 20 dan ortiq korxonalarining mavjud ehtiyojlari asosida 750 nafar o'quvchilar dual ta'lim shakliga o'qishga qabul qilinganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, bundan buyon tashkilotlardan biriktirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Shuningdek, 2024/2025 o'quv yiliga qadar mehnat bozorining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan joriy va istiqbolli ehtiyojni aniqlashga mo'ljallangan elektron platforma yaratilib, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash istagida bo'lgan tashkilotlar va professional ta'lim muassasalari bilan tuziladigan shartnomalarni elektron shaklda imzolash tizimini joriy etiladi.

O‘zbekistonda dual ta’lim shaklini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida joriy yil yakuniga qadar dual ta’lim shaklida qamrov 50 ming nafarga yetkaziladi. Bundan tashqari, yangi o‘quv yili boshlanishiga qadar 100 ta kasb tanlab olinib, Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kasb standartlarini ishlab chiqiladi. Bunda kasbga talab ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda O‘zbekistonda 234 ta professional ta’lim muassasalaridagi 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar dual ta’lim shaklida ta’lim olmoqda. O‘quvchilarga korxonalar (tashkilot)larning 3144 nafar malakali xodimlari “ustoz” sifatida birlashtirilgan bo‘lib, ular tomonidan o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari bevosita ish joylarida shakllantirilmoqda.

Shuningdek, ayni vaqtda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, maktabgacha ta’lim, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda dual ta’limning ulushi boshqa sohalarga qaraganda ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi 3600 dan ortiq korxonalar va tashkilotlar dual ta’limda ishtirok etmoqda. Birgina misol, Andijon viloyatidagi Asaka agrotexnologiyalar texnikumi hamda O‘zbekistondagi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar hisoblangan “UzAvto Motors” aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida dual ta’lim shaklida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan. Ushbu hamkorlik natijasida bugungi kunda “Payvandlash texnologiyasi va jihozlari”, “Avtomobillarni yig‘ish va sinash”, “Mashinasozlik texnologiyasi” va “Avtomobil transportiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash” mutaxassisliklari bo‘yicha 500 nafardan ortiq o‘quvchilar dual ta’lim shaklida o‘qitilmoqda.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda professional ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha Yevropa Ittifoqi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), YUNESKO hamda Shveysariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi kabi xorijiy hamkorlar bilan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan 2 ta texnikumga umumiy qiymati 700,0 ming doll. Bo‘lgan 4 ta traktor, 42 ta tegishli texnik jihozlari va 72 ta kompyuter texnikalari hamda 2 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash uchun muzlatgichlar harid qilindi. Shuningdek, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tomonidan tanlangan 15 ta pilot ta’lim muassasalari yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha tikuv mashinalari to‘plamlari (21 ta tikish mashinasi, 6 ta overlok, 6 ta interlok, 3 ta zigzak, 3 ta kashta tikish), 9 ta kesish stoli, dazmollash dastgohi hamda 3 ta ko‘p funksiyali raqamli «smartboard» bilan ta’minlandi. Birgina, Olmazor yengil sanoat kolleji “Kompyuter yordamida loyihalash” (SAPR) yo‘nalishida amaliyot xonasi zamonaviy jihozlari bilan jihozlandi, 12 ta konstruktorlar va modellashtirishga mo‘ljallangan maxsus planshet, 12 ta kompyuter, 1 ta taqdimot uchun ekran va 1 ta plotter foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, 109 nafar pedagog kadrlarning

Germaniya va Shveysariya davlatlarida malakasi oshirildi. Bundan tashqari, Germaniyaning xorijiy donorlari bilan hamkorlikda 750 nafar o‘qituvchilar Germaniya metodikasi asosida tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dual ta‘limga turli davlatlarda rivojlangan bo‘lsa-da, uning samarali amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud:

Ish beruvchilarning tajribasi va o‘quv jarayoniga qo‘shilmasligi: Ko‘p hollarda, ish beruvchilar o‘quv jarayoniga samarali qo‘shilmaydi yoki malaka oshirish kurslarini o‘z xodimlari uchun majburiy deb hisoblashmaydi. O‘zbekistonda bu muammo ko‘p uchraydi, chunki ish beruvchilar dual ta‘lim ahamiyatini to‘liq tushunmagan yoki qo‘llab-quvvatlashga tayyor emaslar.

Moliyaviy va infratuzilmaviy qiyinchiliklar: Dual ta‘limni yo‘lga qo‘yish uchun talabalarga ish haqi to‘lash, ish joylarini moslashtirish, ta‘lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar yaratish kabi sarflar zarur. Ko‘p hollarda bu, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda katta moliyaviy yuk bo‘ladi.

Ta‘lim dasturlarini ish beruvchilar talablariga moslashtirishda qiyinchiliklar: Dual ta‘lim samarali bo‘lishi uchun ta‘lim dasturi va ish beruvchining talablari o‘zaro mos kelishi kerak. Ko‘p hollarda buni amalga oshirish qiyin, chunki sohadagi ishlash talablari tez o‘zgarib boradi.

Mashg‘ulot o‘tkazuvchi mutaxassislar yetishmasligi: O‘qituvchilar va mutaxassislarning amaliyot va nazariy bilimlarni samarali birlashtirishi uchun ma‘lum bir malakaga ega bo‘lishlari kerak, lekin ko‘p mamlakatlarda bunday mutaxassislar yetishmaydi. Huquqiy va ma‘muriy to‘siqlar: Dual ta‘limning amaliyotda ishlash qismini rasmiylashtirish va kafolatlashda huquqiy va ma‘muriy to‘siqlar mavjud bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda ham dual ta‘limning huquqiy asoslari to‘liq rivojlantirilmagan.

Muammolar yechimi

Dual ta‘limni samarali amalga oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

Ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish: Ta‘lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Masalan, davlat subsidiyalari yoki soliq imtiyozlari orqali ish beruvchilarni dual ta‘lim dasturlariga jalb qilish mumkin. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish: Dual ta‘limni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatilishi kerak. Investisiyalar ta‘lim muassasalarida zarur infratuzilmani yaratish, ish joylarini ta‘minlash va o‘quvchilarga maosh berishga yo‘naltirilishi lozim.

Ta‘lim dasturlarini ish beruvchilar talablariga moslashtirish: Dual ta‘limning samarali bo‘lishi uchun uning dasturi ish beruvchilarning hozirgi va kelajakdagi talablariga moslashtirilishi kerak. Buning uchun o‘quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish kerak. Mutaxassislar tayyorlash: O‘qituvchilar va mutaxassislarni dual

ta’limga tayyorlash dasturlarini yo’lga qo’yish zarur. Bunda ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishga e’tibor qaratilgan bo’lishi kerak.

Huquqiy asoslarni takomillashtirish: Dual ta’limni samarali joriy etish uchun qonunchilikda aniq me’yorlar va kafolatlar belgilanishi kerak. Bu ta’lim jarayonining amaliyot qismini rasmiylashtirish va ish beruvchilar uchun qulaylik yaratishga yordam beradi. Dual ta’lim tizimi-ixtisoslashgan ta’lim turi bo’lib, talaba nazariy bilimlarni ta’lim muassasasida, amaliy ko’nikmalarni esa bevosita ish joyida, yani tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta’limning asosiy maqsadi, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini tayyorlashdan iborat.

Dual ta’lim sharoitida ta’lim nafaqat o’quv muassasalari, balki sanoat korxonalari, firmalar, tashkilotlarni o’z ichiga oladi. Dual ta’lim tizimining dasturlari nazariya va amaliyot tamonidan sinovdan o’tgan "nou-xau" ni birlashtiradi. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish tamoillarini tizimlashtirish ko’zda tutilgan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv-bu professional mutaxassisni samarali tayyorlashni ta’minlaydigan nazariy bilimlar, ko’nikmalar, qobiliyatlar, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarining optimal nisbati asosida kompetensiya va malakalarni shakllantirishga qaratilgan uslubiy paradigmatic tarkibiy qismlarning majmuidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ta’rifidan ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmunini tanlash, o’quv jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui shaklida shakllantirishi mumkin. Ta’limning ma’nosi – o’quvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyatdagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, uning elementi o’quvchilarning shaxsiy tajribasi; O’quv jarayonini tashkil etish-talabalarda tajribani shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, mustaqil yechim ta’lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolar. Nazariy g’oyalarni bog’laydigan ko’prik o’qitish amaliyoti, o’rganish tamoyillari bo’lib xizmat qiladi. "Prinsip" tushunchasi lotincha "pishsh"-boshlanish, asos so’zidan kelib chiqqan. O’z kelib chiqishiga ko’ra, o’qitish tamoyillari (didaktik tamoyillar) pedagogik amaliyotning nazariy umumlashtirishi bo’lib amaliy faoliyat tajribasidan kelib chiqadi va shuning uchun obyektiv xususiyatiga ega. Organish tamoyillari doimo maqsadlar o’rtasidagi munosabatni aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada dual tizimning ahamiyati, duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari tahlil qilindi. Mazkur tizim ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiya qilish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilsa-da, huquqiy asoslarning yetarli emasligi, moddiy-texnika bazasining cheklanganligi va ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikning yo’qligi kabi qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Muammolarni hal qilish uchun davlat, ta’lim

muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda xalqaro tajribalardan foydalanish muhimdir. Tizimni takomillashtirish orqali nafaqat talabalarning malakasi oshiriladi, balki mehnat bozorida ehtiyojlar bilan mos keluvchi kadrlar tayyorlanib, iqtisodiy o‘shish ham ta‘minlanadi. Mazkur yondashuv tizimni samaradorligini oshirish va uning istiqbolli rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom yettirib, yangi bosqishga ko‘taramiz.-T.:O‘zbekiston. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqi.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2019-yil ushun mo‘ljallangan yeng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi, 30.12.2020.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil, 20 dekabr.
6. Behbudiy. Tanlangan asarlar, I jild.,Toshkent: “Akademnashr”, 2018, -B. 412.
7. Behbudiy. Tanlangan asarlar, II jild. Toshkent: “Akademnashr”, 2018, -B. 55.
8. A.X Rardayev., Z.A. Rardayeva. Boshqaruv hisobi. Darslik. —Tafakkurll, T.: 2014 y.
9. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2017 y. 454-b.
10. Mamanazarov O.Sh. Loyiha boshqaruvi o‘quv qo‘llanma. T – 2019.
11. Djuraev R.X. Turg‘unov S.T. Ta‘lim menejmenti. Toshkent. “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. – B 263.